

YO'L-TRANSPORT HODISALARINING ASOSIY SABABLARI.

Xatamov Odiljon Olimjon o'g'li
4 -bosqich "Yo'l harakatini tashkil
etish" yo'nalishi talabasi,
Ilmiy rahbar: **S.Raxmatov**
Andijon davlat texnika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqola haydovchi va piyoda ishtirokidagi yo'l-transport hodisalari (YTH)larning oqibatlarini haqida ma'lumotlar batafsil bayon etilgan. Yo'l-transport hodisalari (YTH) dunyo bo'ylab jiddiy muammo bo'lib, haryili minglab insonlarning hayotiga zomin bo'ladi.

Kalit so'zlar: YTH, avtomobil, piyoda, haydovchi, muhit, yo'l, masofa.

KIRISH: Zamonaviy yo'l harakati murakkab, ko'p omilli va dinamik tizim bo'lib, u "avtomobil-yo'l-haydovchi-piyoda-muhit" kabi bevosita o'zaro ta'sir qiluvchi tarkibiy qismlardan iborat. Ushbu elementlar o'zaro uyg'un ishlagandagina, yo'l harakatining xavfsiz va samarali tashkil etilishi mumkin. Transport vositasi-bu tizimdagi harakatlantiruvchi element bo'lib, uning texnik holati, konstruktiv xavfsizligi, ishlash ko'rsatkichlari yo'l harakati xavfsizligining muhim omillaridan biridir. Avtomobilning tormozlash, tezlanish, yoritish va manevr qobiliyatlari bevosita harakatning barqarorligi va xavfsizligiga ta'sir qiladi. Haydovchi tizimning intellektual boshqaruvchi komponenti bo'lib, yo'l harakati jarayonida qaror qabul qiluvchi asosiy subyektdir. Haydovchining malakasi, psixofiziologik holati, e'tibor darajasi va qoidabuzarlikka moyilligi yo'l harakati xavfsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Uning har bir harakati yo'l sharoiti va transport vositasi bilan muvofiqlashtirilgan bo'lishi kerak. Yo'l tizimining statik elementi hisoblanib, harakat uchun zamin yaratadi. Uning konstruksion tuzilmasi, qoplama sifati, kengligi, ko'rinish imkoniyatlari, yo'l belgilarining mavjudligi, svetoforlar, xavfsizlik orolchalarining holati va infratuzilma elementlari transport oqimining xavfsiz va barqaror harakatlanishini belgilaydi. Piyodalar-yo'l harakati qatnashchilarining faol guruhlaridan biri bo'lib, ular ko'pincha yo'l-transport hodisalarining jabrlanuvchisi sifatida maydonga chiqadilar. Ularning xatti-harakatlari, qoidalarga rioya qilishi yoki qilmasligi, yo'lni kesib o'tish tartibiga bo'ysunishi yo'l harakati xavfsizligi tizimiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tizimning barcha komponentlari tabiiy va ijtimoiy muhitda faoliyat yuritadi. Ob-havo sharoitlari (yomg'ir, qor, tuman, shamol), kunning vaqtiga qarab yorug'lik darajasi, shovqin, ekologik omillar, shuningdek, ijtimoiy-ma'naviy muhit (aholi madaniyati, huquqiy ong darajasi) yo'l harakatining holati va xavfsizligiga ta'sir etuvchi tashqi omillardir.

ASOSIY QISIM : Bu — transport vositasi ishtirokida piyodaga jarohat

yetkazilishi yoki o'limiga sabab bo'luvchi yo'l-transport hodisasidir. Bunday holatlar ko'pincha haydovchi yoki piyoda tomonidan yo'l harakati qoidalarining buzilishi natijasida yuz beradi.

Asosiy sabablari:

- Haydovchi tomonidan:
 - Tezlikni belgilanganidan oshirishi;
 - Svetofor qizil chirog'ida o'tib ketishi;
 - Piyodalar o'tish joyiga yaqinlashganda tezlikni pasaytirmasligi;
 - Mast yoki charchagan holatda boshqarishi.
 - Piyoda tomonidan:
 - Yo'lni belgilangan o'tish joyidan tashqarida kesib o'tishi;
 - Svetofor qizil chirog'ida yo'lga chiqishi;
 - To'satdan transport oldiga chiqib qolishi;
 - Telefon yoki boshqa narsalarga chalg'ishi.
- Oqibatlar:
- Eng ko'p uchraydigan natija — piyodalarning turli darajadagi tan jarohatlari;
 - Og'ir hollarda — o'lim;
 - Haydovchi uchun esa huquqiy javobgarlik (jarima, haydovchilik huquqidan mahrum qilish yoki jinoiy javobgarlik).

Haydovchi va piyoda YTH sodir etilishi





Haydovchi va piyoda o'rtasidagi YTH larni oldini olish

Haydovchilar uchun choralari:

1. Tezlikni belgilangan me'yorlardan oshirmaslik, ayniqsa aholi punktlarida va piyodalar o'tish joylarida.
2. Svetofor, yo'l belgisi va chiziqlar talabiga qat'iy rioya qilish.
3. Piyodalar o'tish joyiga yaqinlashganda tezlikni pasaytirish va to'xtashga tayyor turish.
4. Mast, giyohvand moddalar ta'sirida yoki charchagan holda transport boshqarmaslik.
5. Mashina oynasi, faralar, tormoz tizimi va boshqa texnik vositalarni doimiy nazoratda saqlash.
6. Bolalar maktablari va gavjum joylarda alohida ehtiyotkorlik bilan harakatlanish.
7. Telefon, quloqchin kabi chalg'ituvchi narsalardan foydalanmaslik.

Piyodalar uchun choralari:

1. Yo'lni faqat belgilangan piyodalar o'tish joyidan kesib o'tish.
2. Svetofor qoidalariga rioya qilish, qizil chiroqda yo'lga chiqmaslik.
3. Transport vositalari oldiga to'satdan chiqib ketmaslik.
4. Telefon, quloqchin yoki boshqa chalg'ituvchi narsalardan foydalanmaslik.
5. Kechki va tungi vaqtlarda yoritiladigan yoki aks ettiruvchi kiyim-kechakdan foydalanish.
6. Bolalarni yo'lda nazoratsiz qoldirmaslik, ularni yo'l qoidalariga o'rgatish.
7. Yo'lning xavfli hududlarida (burilish, to'siq ortidan chiqish) ehtiyot bo'lish.

Umumiy profilaktika choralari:

- Yo'l harakati qoidalarini bo'yicha muntazam tushuntirish va targ'ibot ishlari;
- Maktab, kollej va oliy ta'lim muassasalarida yo'l harakati madaniyatini o'rgatish;

- Yo'llarda yetarli belgilar, svetofoqlar va yoritish vositalarini o'rnatish;
- Davriy ravishda YPX nazorati va reydlarni kuchaytirish.

XULOSA;

Haydovchi va piyodalar o'rtasida sodir bo'ladigan yo'l-transport hodisalarining asosiy sababi inson omilidir. Demak, ularning oldini olish ham, avvalo, haydovchi va piyodaning intizomli bo'lishiga bog'liq. Haydovchilar yo'l harakati qoidalariga qat'iy rioya qilishi, tezlikni oshirmasligi, mast yoki charchagan holda rulga o'tirmasligi, piyodalar o'tish joylarida ehtiyotkor bo'lishi kerak. Piyodalar esa faqat belgilangan joydan yo'lni kesib o'tishi, svetoforga amal qilishi, yo'lga to'satdan chiqmasligi va o'z xavfsizligini ta'minlashi lozim. Xulosa qilib aytganda, yo'l-transport hodisalarini kamaytirishning eng samarali yo'li — haydovchi va piyodaning hamkorlikda qoidalarga amal qilishi va yo'l harakati madaniyatini oshirishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. SHNQ 2.05.02-07 // Avtomobilyo'llari // Toshkent - 2008.
1. 2.U.B.G'ulomov "Magistral ko'chalarda piyoda va velosipedchilarning harakatini tashkil etish (Toshkent va Termiz shaharlari misolida)" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi, Toshkent davlat transport universiteti, 2022-yil 42-43-bet.
2. T.f.n. prof. K.X.Azizovt.f.d. prof I.S. Sodikovt.f.d. prof A.X.Urokov, "Piyodalar va velosipedchilar harakatini tashkil etish va xavfsizligini ta'minlash" bo'yicha ilmiy maqola, Toshkent 2020-yil 1-bet
3. Q.H. Azizov." Yo'l transport hodisalarini tizimli tahlili" o'quv qo'llanma Toshkent 2022 y. – 47 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 12.04.2022 yildagi 172-son
5. Internet ma'lumotlari: <https://yhxx.uz/oz>